

O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14210968>

Bobonarova Kamola Uktamjon qizi

"TIKXMMI" – Milliy tadqiqot universiteti, 1 –kurs doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei, Korporativ boshqaruv tizimidagi printsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, auditorlik faoliyatini shakllanish bosqichlari va bugungi kundagi faoliyati haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar

iqtisodiyot, auditorlik, foydalanish, bosqich, faoliyat, aksiya, investitsiya.

Ma'lumki, har qanday voqea, hodisa, buyum qaysi zamonda va makonda paydo bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda ta'kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

- axborot yetkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;

- noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;

- iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;

- axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning yetishmasligi va h. k.

Mana shu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshladi. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir. Auditorlar yetarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajaradilar.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei xo'jalik yurtuvchi subektlarning moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvdan utkazishi hamda moliyaviy faoliyatni mustahkamlanishi orqali sezilarli darajada muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari tomonidan "Korporativ boshqaruv tizimidagi printsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi. Eng avvalo, korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi

Audit XIX asr o'rtalarida Shotlandiyada ham vujudga kela boshlagan. Ingliz temiryo'lchilari, sug'urta va boshqa investorlar Shimoliy Amerikaga yo'l olishganida ular bilan birga yirik ingliz sarmoyador (kreditor)larining manfaatlarini himoya qiladigan mustaqil auditorlar ham birga borganlar. 1844-yilda Angliyada aksiyadorlik kompaniyalarining buxgalteriya schyotlarini, aksiyadorlarga beriladigan hisobotlarni yiliga kamida bir marta mustaqil buxgalterlar tekshiruvdan majburiy o'tkazilishini talab qiladigan qonunlar chiqarilgan.

Dastlab auditorlik vazifalari aniq belgilanmagan bo'lib, barcha investorlar, aksiyadorlar, kreditorlar auditorlarni o'zlarining himoyachisi sifatida qabul qilganlar.

O'zbekistonda auditorlik faoliyatining rivojlanishi bir necha bosqichlardan o'tdi:

1. Boshlang'ich bosqich (1990-yillar boshi):

- Bu davrda auditorlik faoliyati hali shakllanish bosqichida edi. Mustaqillikdan keyin bozor iqtisodiyoti sharoitida auditorlik xizmatlariga ehtiyoj ortib bordi, ammo huquqiy baza va professional standartlar yetarli emas edi.

- Auditorlik firmalari asosan xorijiy kompaniyalarning filiallari yoki yakka tartibdagi auditorlar sifatida faoliyat yuritdilar.

- Kasbiy standartlar va malaka oshirish tizimi zaif edi.

2. Tarmoqning rivojlanish bosqichi (1990-yillar o'rtalari – 2000-yillar boshi):

- Auditorlik faoliyati uchun huquqiy baza yaratildi, birinchi auditorlik standartlari qabul qilindi.

- Auditorlik firmalari soni ko'paydi, lekin ularning sifati va professionalligi turlicha edi.

• Xalqaro auditorlik standartlariga moslashish jarayoni asta-sekin boshlab yuborildi.

• Auditorlarning malakasini oshirish uchun dasturlar ishlab chiqila boshladi.

3. Tartibga solish va standartlashtirish bosqichi (2000-yillar o'rtalari – 2010-yillar):

• Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari takomillashtirildi.

• Xalqaro auditorlik standartlariga moslashish jarayoni davom ettirildi.

• Auditorlik firmalarining faoliyatini nazorat qilish kuchaytirildi.

• Katta auditorlik firmalarining paydo bo'lishi va ularning bozordagi ulushi oshdi.

4. Modernizatsiya va innovatsiyalar bosqichi (2010-yillar – hozirgi kungacha):

• Auditorlik faoliyatini modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshiriladi.

• Axborot texnologiyalaridan foydalanish kengaydi.

• Auditorlik xizmatlarining sifati va ishonchliligini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi.

• Xalqaro auditorlik standartlariga to'liq moslashishga intilayotgan auditorlik firmalari soni ko'paydi.

• Davlat sektorida ham, xususiy sektorida ham auditorlik xizmatlariga bo'lgan talab oshdi.

Kelajakdagi istiqbollari:

• Xalqaro standartlarga yanada chuqurroq integratsiya.

• Raqamli auditorlik texnologiyalarining keng qo'llanilishi.

• Auditorlik xizmatlari sifatini yanada oshirish va mustaqilligini ta'minlash.

• Auditorlik bozorining yanada shaffof va raqobatbardosh bo'lishi.

• Malakali auditor kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Bu bosqichlar shartli ravishda ajratib ko'rsatilgan va ularning chegaralari aniq emas. Rivojlanish jarayoni doimiy ravishda davom etmoqda va O'zbekiston auditorlik faoliyatini jahon standartlariga moslashtirishga intilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "auditorlik faoliyati to'g'risida" gi Qonuni (yangi tahrirda). Mumkin 26, 2000.

2. O'zbekiston Respublikasining "ro'yxatga olingan hisobvaraqli hisobga olish" Qonuni. O'zbekiston Respublikasining 13 yil 2016 apreldagi Qonuni., ECB-404 Quyosh.

3. "Auditor qonunni buzdi" 734-XII sonli qonun, 1992 yil. 9.12.
4. "Auditor qonunni buzdi", 2020.10.11.(Yang Tahrirlar).
5. Standartlar Milliy auditi 3394 - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 10/24/2022-sonli qonun loyihasini tasdiqladi.
6. BUXGALTERIYA HISOBOTINING MILLIY STANDARTI.
7. Standartlashtirilgan ko'chadan Audit va sifat nazorati. 2012. 1-qism, 3-ed. - T.: Obama, 2014.- 1049
8. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va ularni "buxgalteriya hisobining milliy standarti (MXX) ning kontseptual asosi sifatida taqdim etish. <http://www.lex.uz>
9. Gostov S. U. byudjet buxgalteriya hisobini tashkil qiladi va audit metodologiyasini takomillashtiradi: I. F. D. olimlar darazhasini olish uchun yesilgan dis. muallifning referati. Toshkent-2018, 77
10. Tuichiev A., Kuziev I., xozhiev M., Yakubov M. ichki audit. Darslik. - T.: "Iqtisodiyot-Moliya", 2018.- 252 P.
11. S. Toshnazarov.N. Markaziy qishloq xo'jaligi kompleksining moliyaviy hisoboti zarurat, mohiyat va rivojlanishni o'zgartirish / / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali 3 - son, 2017 yil may-iyun